



SIRDARYO VILOYATI SHIRIN SHAHAR HOKIMI Q A R O R I

2021 йил «30» декабрь

112-9-131-Q/21

Ширин шаҳар ҳокимлиги

Shirin shahar hududidagi yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli avtomototransport vositalari va ularning tirkamalarini 2022-yil uchun majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish haqida

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 25-moddalari, “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonunining 17-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2021-yil 9-martdagi 125-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga (keyingi o‘rinlarda – Nizom) muvofiq transport vositalarining 2022-yilda majburiy texnik ko‘rigini tashkil qilish maqsadida, **qaror qilaman:**

1. Shahar hududidagi mulkchilik shaklidan qat’iy nazar yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan transport vositalari majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazilsin.

2. Shaharda transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish bo‘yicha shahar komissiyasi tarkibi 1-ilovaga, jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo‘lgan transport vositalarining 2022-yilgi majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish jadvali 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Transport vositalari quyidagi davriylikka muvofiq texnik ko‘rikdan o‘tkazilsin:

tijorat asosida yo‘lovchilar tashish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yengil avtomobillar, avtobuslar, trolleybuslar, tramvaylar va o‘rindiqlar soni 8 ta va undan ortiq bo‘lgan (haydovchining o‘rnidan tashqari), odamlarni muntazam

tashish uchun jihozlangan yuk avtomobillari, yirik gabaritli, og‘ir vaznli va xavfli yuklarni tashish uchun maxsus transport vositalari va ularning tirkamalari — bir yilda ikki marta;

ishlab chiqarilganiga olti yildan ko‘p bo‘lmagan transport vositalari (mazkur bandning ikkinchi xatboshisida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) — ikki yilda bir marta;

ishlab chiqarilganiga olti yildan ortiq bo‘lgan, shuningdek, ishlab chiqarilgan vaqti aniq bo‘lmagan transport vositalari (mazkur bandning ikkinchi xatboshisida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) — bir yilda bir marta;

tirkamalar texnik ko‘rikka transport vositasi — shatakchi uchun belgilangan muddatlarda;

navbatdagi texnik ko‘rikdan o‘tkazishning ilgari o‘rnatilgan muddatlaridan qat’iy nazar, ularni Davlat yo‘l harakati xavfsizligi xizmati (keyingi o‘rinlarda - DYHXX) organlarida ro‘yxatdan o‘tkazish (qayta ro‘yxatdan o‘tkazish) vaqtida (birinchi marta ro‘yxatga olinayotgan yangi transport vositalari bundan mustasno).

4. Mazkur qarorning 3-bandi ikkinchi xatboshisida ko‘rsatilgan transport vositalarining texnik ko‘rigi:

birinchi marta – 1 mart – 30 iyunda;

ikkinchi marta – 1 sentyabr – 31 oktyabrda o‘tkaziladi.

Jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli boshqa transport vositalarining texnik ko‘rigi 1 yanvar – 31 dekabrda o‘tkaziladi.

5. Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish shahar komissiyasi rahbariga transport vositalarining texnik ko‘rikdan o‘tkazishda:

transport vositasini ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risidagi guvohnomada (texnik pasportda, texnik talonda) ko‘rsatilgan ma’lumotlarga transport vositasi turi, markasi, modeli, davlat ro‘yxatidan o‘tkazish raqami belgilari, shassi (rama), kuzov va dvigatelning identifikasiyalash raqamlarining muvofiqligi;

transport vositasining texnik holati va jihozlari texnik reglamentlar, standartlar talablariga, yo‘l harakati xavfsizligi qoidalari va normalariga muvofiqligi;

maxsus va tezkor xizmatlarning transport vositalarida maxsus rangli va ovozli

signallar qurilmalarining mavjudligi, sozligi va qonuniyligi, shuningdek, transport vositasining rang-grafik bo'yash sxemalarining texnik reglamentlar yoki standartlar talablariga muvofiqligi;

gaz yonilg'isida ishlash uchun qayta jihozlangan transport vositalarini texnik ko'rikdan o'tkazishda gaz ballonlarining foydalanish muddati, ishlab chiqarilgan yili, zavod raqami, gaz ballonlarini sinovdan o'tkazish muddatlari, gaz balloni anjomlarining belgilangan talablarga muvofiqligini tekshirilishini ta'minlasin.

6. Transport vositalarining majburiy texnik ko'rigi DYHXX organlari hamda tadbirkorlik subyektlari – yuridik shaxslar tomonidan Nizomga muvofiq o'tkaziladi hamda tegishli yig'im undiriladi.

Transport vositalarining texnik holati va uskunalarining muvofiqligini baholash uchun DYHXX organlari tomonidan vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlarning texnika bazalari, shuningdek, xususiy texnik xizmat ko'rsatish stansiyalari shartnoma asosida jalb etilishi mumkin.

Jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan M1 toifadagi transport vositalari faqat tadbirkorlik subyektlari tomonidan texnik ko'rikdan o'tkaziladi.

7. Shahardagi barcha transport vositalari egalari bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslarga texnik ko'rikdan o'tkazish jadvali asosida transport vositalarini texnik jihatdan sozligini o'z vaqtida texnik ko'rikdan o'tkazish majburiyati yuklatilsin.

8. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-martdagi "Transport vositalarini majburiy texnik ko'rikdan o'tkazish tartibi to'g'risida nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi 125-sonli qarori 3-bandiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi va Davlat xavfsizlik xizmati harbiy bo'linmalarining transport vositalari mazkur idoralar tomonidan belgilangan tartibda majburiy texnik ko'rikdan o'tkazilishi inobatga olinsin.

9. Shahar hokimining 2020-yil 25-fevraldagi "Shirin shahar hududidagi yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli avtomototransport vositalari va ularning tirkamalarini 2021-yil uchun majburiy texnik ko'rikdan o'tkazish haqida"gi 48-sonli qarori o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

10. Qaror matni hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin hamda "Shirin sadosi" gazetasi bosh muharriri (O.Ashurqulov) ushbu qaror matnini "Shirin sadosi" gazetasida chop etilishini ta'minlasin.

11. Ushbu qaror rasman e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

12. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish shahar hokimi o‘rinbosari Z.Abduvoxidov zimmasiga yuklatilsin.

Shahar hokimi



S.Sultonov

Ширин шаҳар ҳокимининг
2021 йил 30 декабрдаги
112-9-131-Q/21-сон қарорига
1-илова

Ширин шаҳар ҳудудida transport vositalarini texnik ko‘rikdan o‘tkazish bo‘yicha komissiya TARKIBI

1-GURUH

- | | | |
|---|---------------|---|
| 1 | E.Bayzakov | Ширин шаҳар ИИБ YHXB катта инспектори,
комиссија раиси |
| 2 | G‘.Berdiqulov | “Sirdaryo IES” AJ avtogaraji YHX va TX
muhandisi, komissiya a’zosi |
| 3 | R.Qosimov | Ширин energetika kolleji direktor o‘rinbosari,
komissiya a’zosi |

Izoh: Shaharda avtotransport vositalari mavjud bo‘lgan korxonalar va tashkilotlar mas’ul xodimlari komissiya a’zolari hisoblanadi.

Komissiya a’zolari vazifasidan ozod qilingan taqdirda o‘rniga tanlangan shaxs komissiya a’zosi hisoblanadi.

Ширин шаҳар ҳокимининг
2021 йил 30 декабрдаги
112-9-131-Q/21-сон қарорига
2-илова

Shirin shahar hududidagi yuridik shaxslarga qarashli avtomototransport vositalarini, tirkama va yarim tirkamalarni 2022-yilgi majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish

JADVALI

№	Avtoxo‘jalik va korxonalar nomi	Transportlar soni	Texnik ko‘rikdan o‘tkazish kuni 1-bosqich	Avtokorxonalar tashkilotlar manzili	Texnik ko‘rikdan o‘tkazish manzili
1	“Sirdaryo IES” AJ	43	05.05.2022	Shirin shahar Xalqlar do‘stligi ko‘chasi	Shirin shahar “Sirdaryo IES” AJ avtogaraji
2	“Farhod GES” UK	6	05.05.2022	Shirin shahar Farhod mahallasi hududida	Shirin shahar “Sirdaryo IES” AJ avtogaraji
3	Shirin energetika kolleji	3	12.05.2022	Shirin shahar Ibn Sino ko‘chasi	Shirin shahar “Sirdaryo IES” AJ avtogaraji
4	Shirin shahar elektr ta‘minoti	4	15.05.2022	Shirin shahar Buyuk Turon ko‘chasi	Shirin shahar “Sirdaryo IES” AJ avtogaraji
5	“Shirinshahargaz” gaz ta‘minoti bo‘limi	3	15.05.2022	Shirin shahar Farhod mahallasi, Fitrat ko‘chasi	Shirin shahar “Sirdaryo IES” AJ avtogaraji
6	Shirin shahar tibbiyot birlashmasi	1	18.05.2022	Shirin shahar Ibn Sino ko‘chasi	Shirin shahar “Sirdaryo IES” AJ avtogaraji
7	Shirin shahar hokimligi Obodonlashtirish boshqarmasi	9	20.05.2022	Shirin shahar Amir Temur mahallasi	Shirin shahar “Sirdaryo IES” AJ avtogaraji
8	Shirin shahar Moliya bo‘limi	1	20.05.2022	Shirin shahar Buyuk Turon ko‘chasi	Shirin shahar “Sirdaryo IES” AJ avtogaraji

9	Shirin shahar hokimligi	8	20.05.2022	Shirin shahar Buyuk Turon ko'chasi	Shirin shahar "Sirdaryo IES" AJ avtogaraji
10	Shirin shahar DSI	1	20.05.2022	Shirin shahar Ibn Sino ko'chasi	Shirin shahar "Sirdaryo IES" AJ avtogaraji
11	"Agrobank" ATB Shirin shahar filiali	1	20.05.2022	Shirin shahar Buyuk Turon ko'chasi	Shirin shahar "Sirdaryo IES" AJ avtogaraji
12	"Toza hudud" DUK Shirin shahar filiali	3	20.05.2022	Shirin shahar	Shirin shahar "Sirdaryo IES" AJ avtogaraji
13	Shirin shahar Aholi bandligiga ko'maklashish markazi	1	20.05.2022	Shirin shahar Buyuk Turon ko'chasi	Shirin shahar "Sirdaryo IES" AJ avtogaraji

Eslatma: Ushbu jadvalda ko'rsatilgan muddatda korxonalar va tashkilotlarda mavjud transport vositalarini majburiy texnik ko'rikka tayyorlash imkoniga ega bo'lmagan taqdirda yoki shu muddatdan oldin o'tkazish imkoniyatiga ega bo'lsa, o'n kun oldin bu haqda yozma axborot bilan Shirin shahar IIB YHXGga xabar qilishi lozim.